

## **QARINDOSHLIK TERMINOLOGIYASINI ANROPOTSENTRIK PARADIGMA NUQTAI NAZARIDAN O'RGANILISHI**

**Jabbarova Yulduz Xujamuradovna**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali ingliz tili fani o'qituvchisi  
yulduzhan1806@gmail.com*

**АННОТАЦИЯ:** *Mazkur maqola qarindoshlik terminologiyasi murakkab xarakterga ega bo'lgan muhim etnografik va tarixiy manba sifatida o'rganilishga hamda "qarindoshlik" terminologiyasini anropotsentrik tabiatni tadqiqiga bag'ishlangan.*

**Kalit so'zlar:** *antropotsentrik, leksik birliklar, biologik, antropologlar, qarindoshlik munosabatlari, madaniy, geografik, gender munosabatlar, ijtimoiy qadriyat.*

**АННОТАЦИЯ:** *Данная статья посвящена изучению терминологии родства как важного этнографического и исторического источника, имеющего комплексный характер, а также изучению антропоцентристической природы терминологии «родство».*

**Ключевые слова:** *антропоцентрические, лексические единицы, биологические, антропологические, родственные отношения, культурные, географические, гендерные отношения, социальная ценность.*

**ANNOTATION:** *This article is devoted to the study of the terminology of kinship as an important ethnographic and historical source of a complex nature, as well as to the study of the anthropocentric nature of the terminology "kinship".*

**Key words:** *anthropocentric, lexical units, biological, anthropological, kinship relations, cultural, geographical, gender relations, social value.*

Lingvistik tадqiqotlar doirasida antropotsentrik paradigmani o‘rganish tilning leksik fondidagi qarindoshlik terminologiyasining faoliyatiga qiziqishning oshishiga olib keldi, chunki tilning ushbu jihatini o‘rganish tufayli olamning lisoniy manzarasini chuqurroq anglash, milliy-madaniy komponentni o‘z ichiga olgan leksik birliklar, shu jumladan, qarindoshlik atamalari, turli til sohiblari tomonidan ushbu leksik birliklardan foydalanishning funksional va lingvokultural jihatlarini tavsiflashga imkon beradi. Insoniyat taraqqiyotidan ma’lumki, ibtidoiy jamiyatning dastlabki davrlarida shakllana boshlagan oila-qarindoshlik munosabatlari ma’lum davrlar o‘tishi bilan tobora mustahkamlanib, takomillashib borgan. Bu esa, o‘z navbatida, ana shu holat markazida inson bilan bog‘liq ijtimoiy, huquqiy, axloqiy oila va qon-qarindoshlik munosabatlarini aks ettiruvchi bir qator atamalarning paydo bo‘lishi va muomilada qatnashuvi uchun zamin hozirlangan. Oila va qon-qarindoshlik munosabatlarining ma’lum bir tartiblar, qoida-qonunlar asosida belgilab qo‘yilishi natijasida otalik va onalik tomonlari hamda ajdod va avlodlar bosqichlari bilan aloqador yangi atamalar paydo bo‘lgan hamda astasekinlik bilan muomalaga kiritila borgan. Zero, inson ma’naviyati esa dastlab oila sharoitida, oilaviy muhitda shakllanadi. Buning yoniga insonning do’st-birodarlik, quda-andachilik, mahalla-ko‘ychilik, yurtdoshlik kabi yondosh faktorlar bilan shakllanadigan, qon-qarindoshlik bilan yonma-yon amalda bo‘ladigan ijtimoiy, huquqiy va ma’naviy-axloqiy munosabatlarini aks ettiradigan tushunchalar ham borki, ularni e’tibordan soqit qilib bo‘lmaydi. O‘zbeklar har doim katta oilalarda yashaganlar – oilaviy hayot ularning qadriyatlar tizimida muhim o‘rin tutgan, bu esa oilaga aloqador atamalar guruhining shakllanishiga olib kelgan. Qarindoshlik va nasl-nasab bir vaqtning o‘zida genetika va ijtimoiy antropologiyada muhim tushunchalardir. Ushbu fanlar bu hodisaning turli tomonlarini tarixan o‘zaro “bo‘lib” olganlar va bu an’analarning har biri o‘z tarixi davomida "qarindoshlik" va odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni, xoh u mutatsion uzatish usuli yoki ijtimoiy munosabatlar bo‘lsin, o‘ziga xos tarzda tushungan. Genetika asosiy e’tiborni qarindoshlikning biologik (genetik) komponentiga, genlarning nasldan naslga o‘tishiga qaratdi. Ijtimoiy antropologiya esa ko‘p yillar davomida

qarindoshlikning ma’nosini ushbu hodisaning turli madaniyatlar va jamoalarda qanday talqin qilinishiga ko‘ra o‘rganib chiqdi. Bitta hodisaning biologik va ijtimoiy tarkibiy qismlarga bo‘linishi modern yoki zamonaviy davrga xosdir. B.Latur ta’kidlaganidek, “tozalash” amaliyotlaridan foydalanib, zamonaviy davr namoyondalari “ikki butunlay boshqa-boshqa bo‘lgan ontologik zonalarni yaratadi, ulardan birini odamlar, ikkinchisini esa “inson bo‘lmanlar” (non-humains)” tashkil etadi [Latour. 2006: 71]. XX asr o‘rtalarida ijtimoiy soha tadqiqotchilari tananing “tabiati” va uning madaniy talqinlarini bir-biridan ajratadigan bir qator ana shunday chegaralarini ishlab chiqdilar. Buni feminist tadqiqotchilar jins va gender toifalari bilan bog‘lab, ya’ni “jins” tushunchasini biologiyaga, “gender” tushunchasini esa madaniyatga taalluqli deya talqin qilish asnosida amalga oshirdilar. Qarindoshlikning ijtimoiy va madaniy ma’nolarini o‘rganish bilan tarixan antropologiya shug‘ullangan. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida qarindoshlik bu fanning asosiy mavzusiga aylandi; Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya antropologlari tomonidan g‘arbiy bo‘lman jamiyatlardagi qarindoshlik munosabatlarini o‘rganish o‘sha davrda urfga kirgan edi. Qarindoshlikni o‘rganishning usullaridan biri turli guruhlardagi qarindoshlik tizimlarini solishtirish edi. Bunda, antropologlar, ba’zi (“universal”) biologik omillarning ijtimoiy ahamiyati bilan qiziqdilar, masalan, bolalarning ikki ota-onada tomonidan tarbiyalanishi, chaqaloqlarning ona tomonidan tarbiyalanishi va bolalarning ota-onada (eng avvalo, onaning) g‘amxo‘rligiga bog‘liqligi [Wilson. 2016: 573]. Shunisi e’tiborga loyiqliki, biologik qarindoshlikni o‘zaro bog‘liq deb hisoblaydigan genetiklar kabi, XX asr oxiridagi antropologlar, jumladan, L.G.Morgan ham “oilaviy munosabatlar an’anaviy ravishda dunyoning texnologik va siyosiy hiyla-nayranglaridan chetda yoki undan tashqarida mavjud bo‘lgan birlamchi aloqalarni o‘zida mujassam etadi” deb ishonishgan [Strathern. 1992: 11]. Morganning fikriga ko‘ra, bu “birlamchi bog‘lanishlar” tabiatda inson faoliyatidan mustaqil ravishda mavjud. Qolaversa, yevropalik bo‘lman jamiyatlardagi qarindoshlik tuzilmalarini “oddiygina tavsiflash” uchun ingliz antropologlari o‘zlarini bilmagan holda umume’tirof etilgan (inglizcha) qarindoshlik atamalaridan

foydalanganlar. Shunday qilib, Morgan, qarindoshlikning tavsifiy tuzilmalari, har bir ota-onasi va amaki/xolaning ismlari har xil ko‘rinishga ega bo‘lgan ingliz tilidagi kabi “tabiat”ga yaqinroq, ular “haqiqiy qondosh oqimga mansub” deb hisoblagan. Mumtoz antropologlar, shu asnoda, qarindoshlik munosabatlarini biologik ajdodlar va avlodlar o‘rtasidagi juftlar va nasl-nasablarni hosil qiluvchi biologik munosabatlar sifatida tushunganlar. Ilk antropologlar uchun qarindoshlik “qondoshlik munosabatlari” masalasi edi, bunda odamlar o‘rtasidagi ittifoqlar “biogenealogiyalar”ni yaratgan taqdirdagina muhim hisoblanadigan biologik tuzilma edi [Wilson. 2016: 574]. Aynan shu nuqtai nazar 1970-1980-yillarda D.M.Shnayder tomonidan qattiq tanqidga uchradi, u antropolog hamkasblarini ular tomonidan o‘rganilayotgan jamoalardagi qarindoshlik atamalarini o‘zlarining (evropacha) biologik-genealogik-reproduktiv tushunchalar tarmog‘i orqali tavsiflashda va bioessensializmda aybladi. D.M.Shnayder bu tarmoqni boshqa madaniyatlarga o‘ziga xos Yevro-Amerika qarindoshlik konsepsiyasini yuklaydigan etnotsentrik loyiha deb atadi. Shnayderning bioessensializmni tanqid qilishi madaniy antropologlar madaniyatni yaratuvchi ramzlarga va bu ramzlar ushbu madaniyatda qanday tushunilishiga e’tibor qaratishlari kerakligini ta’kidladi. Qarindoshlik terminologiyasi murakkab xarakterga ega bo‘lgan muhim etnografik va tarixiy manba bo‘lib, u nafaqat tilshunoslar, balki umuman gumanitar fanlar sohasidagi etnologlar, etnograflar, tarixchilar va olimlar orasida ham katta qiziqish uyg‘otadi. O‘zbek va ingliz xalqlarining qarindoshlik aloqalari nomenklaturasini o‘rganish tufayli ushbu tillarning o‘xshashlik va farqli tomonlari to‘g‘risida bir qator xulosalar chiqarish mumkin bo‘ladi. Leksikani o‘rganish va ma’lum bir til lug‘atining ayrim leksik guruhlarini tahlil qilish so‘zlarning leksik-semantik ma’nolari rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari va shartlarini aniqlashga imkon beradi. Tilning terminologik tizimi ushbu tizimdagisi har bir elementning boshqa element bilan munosabatlarining murakkabligi bilan belgilanadi. Ko‘pgina elementlarni qamrab olgan qarindoshlik atamalarining terminologik yaxlitligi bir-biri bilan doimiy aloqada bo‘lgan atamalar

tizimi vazifasini bajaradi. Yangi atamaning paydo bo‘lishi yoki eskisining yo‘qolishi ushbu tizimdagi boshqa elementlarining o‘zgarishida aks etadi.

Lisoniy birliklarni asosan shakliy tomondan o‘rganish, tilga semiotik nuqtai nazardan yondashish, lisoniy belgini faqat shakldan iborat deb hisoblash tilni har biri yopiq tizim sifatida qaraladigan qat’iy sathlarga ajratishga olib keldi. Lisoniy birliklarning‘ o‘zi ifodalanayotgan obyektiv borliq bilan munosabati tadqiqotdan chetda qoldi. Keyinchalik tilni bunday o‘rganish bir yoqlama ekanligi, shaklni ma’nodan uzib bo‘lmasligi ma’lum bo‘ldi. Natijada lisoniy birliklarning ma’no tomoniga e’tibor kuchaydi. Tilshunoslikda mazmuniy tadqiqotlarning kuchayishi natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, lisoniy birliklarning shakl va mazmui tomonidan tavsifi ham tilni to‘liq izohlashga imkon bermaydi. Lisoniy birliklarni kontekst, nutq vaziyati bilan bog‘lab o‘rganishgina ularning ma’nosini to‘g‘ri tushunishda katta imkoniyat beradi. Qarindoshlik tushunchasini isloh qilish uchun eng muhimi til o‘rganishga kulturologik yondashuvdir. Zamonaviy tilshunoslikning diqqat markazida madaniy va antropotsentrik paradigmalar – tadqiqotching manfaatlarini bilish obyektlaridan subyektga o‘tkazish, ya’ni tildagi shaxs ham, shaxsdagi til ham o‘rganiladi [Маслова. 2001]. Tilga antropotsentrik nuqtai nazardan qarash g‘oyasi hozirgi kunda ijobiy baholanmoqda: ko‘pgina til qurilmalarida inson haqidagi tasavvur tabiiy va to‘g‘ri qabul qilinmoqda. Antropotsentrik nazariya – tadqiqot obyektining subyektda o‘rganilishidir, boshqacha qilib aytganda, til insonda, inson tilda tahlilga tortiladi. I.A.Boduen de Kurtenening fikricha, “til faqat yakka shaxsning ongida, ruhida, qalbida bo‘ladi, bu shaxs til jamoasini tashkil qiladi” [Бодуен де Куртене. 1963]. Tilni anropotsentrik nuqtai nazardan o‘rganish g‘oyasi – zamonaviy tilshunoslikda asosiy yo‘nalish hisoblanadi. Hozirgi kunda lisoniy tahlilning maqsadi tilning turli tizimlari namoyon bo‘lishini o‘rganishdan iborat emas. Til – murakkab hodisa. E.Benvenist ta’kidlaganidek, “Tilning o‘zligi shu qadar o‘ziga xoski, tabiatan uni bir nechta strukturalardan iborat deb baholash mumkin. Ularning har biri umumiyl tilshunoslikning yuzaga kelishi uchun asos vazifasini bajarishi mumkin” [Бенвенист. 2002]. Muayyan

jamiyatning moddiy va madaniy tarkibiy qismining tarixiy o‘zgarishi bilan tilda, uning turli darajalarida, birinchi navbatda, lug‘at darajasida kuzatilishi mumkin bo‘lgan o‘zgarish bo‘lishi shart. Ingliz va o‘zbek madaniyatlaridagi qarindoshlik terminologiyasi keng ma’noda lingvistik va madaniy jihatlarni taqqoslash orqali aniqlanadi. Shunday qilib, qarindoshlik atamalari ushbu xalqlar madaniyatidagi tarixiy o‘zgarishlar aks ettirilgan tilida o‘rganiladi. Lingvistik birliliklarning tuzilishi va ma’nosining o‘zgarishi va ushbu tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniy va tarixiy xususiyatlari o‘zaro bog‘liqdir. Etnik guruh tarixi lingvistik birliklar ma’nosining o‘zgarishiga ta’sir qiladi, bu esa, o‘z navbatida, ushbu lisoniy madaniyat sohiblarining xulq-atvori va idrokiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Har bir qarindoshlik atamasining leksik ma’nolari va tarixi ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatları tillarining terminologik tizimi lug‘atini tarkibiy tahlil qilish orqali alohida o‘rganilishi mumkin, buning natijasida har bir lingvistik birlilikning differensial xususiyatlari aniqlanadi, uning milliy va madaniy xususiyatlari tavsiflanadi. Qarindoshlik terminologiyasini qiyosiy tahlil qilishda ushbu tillarning rivojlanishini ko‘rib chiqish muhim rol o‘ynaydi. Bu umumiy ingliz va o‘zbek leksik fondi rivojlanishining ma’lum bir bosqichini qayd etgan qarindoshlik atamalaridagi o‘zgarishlarni, ushbu tillardagi xususiyatlarni taqqoslash nuqtasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Nafaqat ingliz va o‘zbek tillari, balki har bir tilning qarindoshlik atamalari va xususiyatlari har bir millat vakillarining milliy madaniyati va lingvistik qiyofasining ifodasidir. Qarindoshlik munosabatlari terminologiyasi bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan elementlar tizimi sifatida ifodalanishi kerak. Muayyan etnik guruhning oilaviy munosabatlari va an’analari belgilangan lingvistik va madaniy qadriyatlarda aks etadi. Shu asnoda, ingliz va o‘zbek tillarining qarindoshlik terminologiyasi va xususiyatlari tizimi qadimiy va zamонавиј xususiyatlarni birlashtiradi. Ingliz va o‘zbek xalqlari dunyosini idrok etishdagи farqlar qarindoshlik atamalarining leksik va semantik sohasi orqali namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, oilaviy qadriyatlar ko‘lamini tasvirlash va jamiyatning tuzilishini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Qarindoshlik atamalari va xususiyatlari tizimlarini taqqoslashda komponentlar aniqlanadi va ularning vazifaviy xususiyatlari tavsiflanadi.

J. Grinberg olib borgan tadqiqot ishining asosiy qoidalari:

1) har qanday til avlodlar vakillarining turli xil nominatsiyasiga intiladi – *ota-onalar, bolalar, nabiralar, avlod orqali qarindoshlik va boshqalar, parents, children, grandchildren, relatives through generation etc.;*

2) qarindoshlikni ifodalash uchun belgilangan terminologiya – *ota, qaynota, xola, father, father-in-law, aunt, etc.;*

3) barcha tillarda gender farqlarini belgilash an'anasi mavjud – *ota-onsa, bobo-buvi, qiz-o'g'il va boshqalar, father-mother, grandfather-grandmother, daughter-son, etc.* [Greenberg: 1970].

J. Grinberg tomonidan taklif qilingan universaliyalar asosida har qanday til lug'at tizimining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq barcha masalalar va muammolarni aniqlash, lingvomadaniyatshunoslik sohasida ikki yoki undan ortiq tillarni qiyosiy o'rghanish mumkin bo'ladi. T.P. Lomtevning "Differensial semantik elementlarni ajratish tamoyillari" nomli maqolasida taklif qilingan tasnif quyidagi asosiy tushunchalarga asoslanadi:

- 1) obyektni bildiruvchi va *nom* deb ataluvchi belgi;
- 2) belgining ma'nosini anglatadigan va *denotat* (predmet) deb ataladigan obyekt;
- 3) *ma'no* deb ataladigan, berilgan obyektni boshqa obyektlar to'plamidan ajratish usuli [Lomtev. 1969].

Agar biz to'g'ridan-to'g'ri ota-onalarni umumiy **M** harfi bilan belgilasak, unda ota-onalar to'plamining jinsi, huquqiy holati, nikoh aloqalari va boshqalar bo'yicha bo'linishiga asoslanib, T.P. Lomtevga ergashgan holda, differensial elementlar sxemasini tuzishimiz mumkin. Ingliz va o'zbek madaniyatlarida sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlar oilani tavsiflovchi zamonaviy lug'at majmuasining holatiga ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatdagi evolyutsion o'zgarishlar, iqtisodiy, siyosiy, diniy va madaniy hayotning o'zgarishi tillarning o'zida o'zgarishlarni keltirib chiqaradi - ingliz va o'zbek

tillarida ma'lum qarindoshlik atamalarining mavjudligi yoki yo'qligi birinchi navbatda madaniy va tarixiy an'analar bilan bog'liq. Ingliz va o'zbek xalqlari uzoq mustaqil rivojlanish yo'lidan o'tganlar, ma'lum madaniy qadriyatlarni shakllantirganlar, bu esa qarindoshlik terminologiyasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatdi. Ingliz va o'zbek qarindoshlik atamalari alohida-alohida olingan holda diaxronik va sinxronik jihatdan bir necha bor lingvistik tavsif obyekti bo'lgan. Ammo bir-biridan yiroq bo'lgan bu ikki tildagi qarindoshlik konsepti qiyosiy aspektda hali yetarlicha o'rganilmagan. Ingliz va o'zbek xalqlarining qarindoshlik atamalari va xususiyatlari tizimi haqida etimologik va etno-madaniy ma'lumotlar mavjud bo'lib, asosiy e'tibor ushbu sohaning umumiyligini leksik birliklariga qaratilgan. Demak, antropotsentrik paradigma "tilni quruq tuzilma sifatida emas, balki jonli muloqot va kommunikatsiyaga asoslangan ochiq tizim sifatida o'rganuvchi, boshqa tizimlar - jamiyat, inson, madaniyat, ruhiyat kabilar bilan uzviy aloqadorlikda tahlil etuvchi, insonni til ichida yoki tilni inson ichida tahlil etishga yo'naltirilgan qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar majmuidir." Prof. N.Mahmudov ta'kidlaganidek, "antropotsentrizm tilshunoslar tomonidan faqat til tadqiqigagina nisbatlangan tushuncha yoki paradigma emas, antropotsentrizm bevosita tilning mohiyatiga daxldor hodisadir. ... antropotsentrik paradigmada inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi [Mahmudov. 2017]. Tilshunoslikda e'tirof etilganidek, antropotsentrik paradigma qiyosiy-tarixiy va sistem-struktur paradigmalardan keyingi uchinchiligi paradigma hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, pragmatika va lingvokulturologiya antropotsentrik paradigmaga asoslangan eng muhim sohalar hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Latour B. (2006) Нового времени не было. Эссе по симметричной антропологии / transl. from French by D. Ya. Kalugin; ed. by O.V.Kharkhordin. St. Petersburg: European University at Saint Petersburg Publ. 240 p.
2. Wilson, R. A. (2016) Kinship past, kinship present: Bio-essentialism in the study of kinship. American Anthropologist, vol. 118, issue 3, pp. 570–584.
3. Strathern, M. (1992) After nature: English kinship in the late twentieth century. Cambridge : Cambridge University Press. xviii, 240 p.

4. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
5. Бодуэн де Куртенэ И. А. Избранные труды по общему языкознанию. — М.: Изд-во АН СССР, 1963.
6. Бенвенист Э. Общая лингвистика. – Москва: УРСС, 2002. – 448 с.
7. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. - Тошкент: Мумтоз сўз, 2017 -174 б.
- 8.IRRIGATION STRUCTURES IN KASHKADARYO OASIS IX Jabborova НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ. СОВРЕМЕННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ..., 2021
- 9.Meliorative Condition Of Land In The Oasis Of Kashkadarya In The 50s Of The 20th Century JI Khujamatovna International Journal Of Social Science & Interdisciplinary Research Issn ..., 2022
- 10.Contributions of Irrigators Yekaterina Isaakovna Friesen and Somova Nina Nikolaevna to the Development of Kashkadarya Water Management JI Khujamatovna Miasto Przyszlosci 30, 18-20, 2022
- 11.Study of irrigation history of the kashkadarya oasis JI Xujamurotovna International Journal of Psychosocial Rehabilitation 24 (6), 3047-3051, 2020
- 12.ЎЗБЕКИСТОН СУФОРИШ ТАРИХИННИГЗАХМАТКАШ ТАДҚИҚОТЧИСИ ВА ЗУККО МЕММОРИ И. Х ЖАББОРОВА Uzbek Conference Publishing Hub 1 (01), 54-58, 2021
- 13.QASHQADARYO IRRIGATSIYA INSHOOTLARI QURILISHI TARIXSHUNOSLIGI I Jabbarova Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры 3 (6), 130-134, 2023
- 14.SOURCES RELATED TO THE HISTORY OF THE IRRIGATION CONSTRUCTION OF THE KASHKADARYA OAZIS JI Khujamatovna INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN ..., 2023
- 15.OSIYO ARSLONINING QULASHI Z Amirova, I Jabbarova Инновационные исследования в науке 3 (1), 141-150, 2024
- 16.O ‘ZBEK JANGCHILARINING IKKINCHI JAHON URUSHIDAGI JASORATLARI M Shonazarov, I Jabbarova Solution of social problems in management and economy 2 (13), 160-167, 2023
- 17.SALJUQIYLAR IMPERIYASI–TARIXDAGI BUYUK DAVLAT K Safarov, I Jabbarova Models and methods in modern science 2 (13), 149-155, 2023
- 18.HISTORY OF CONSTRUCTION OF PACHKAMAR WATER RESERVOIR I Jabbarova Академические исследования в современной науке 2 (27), 64-70, 2023
- 19.BERUNIYNING HINDISTON ASARI N Bobomurodova, I Jabborova Международная конференция академических наук 3 (1), 103-107, 2024
- 20.TURK XOQONLIGI HARBIY SAN’ATI A. Q Nurmanov, I Jabbarova Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 2 (22), 32-40, 2023
- 21.AMIR TEMURNING HARBIY YURISHLARI VA TAKTIKALARI M Shonazarov, I Jabbarova Current approaches and new research in modern sciences 3 (7), 55-64, 2024
- 22.HISTORY OF CONSTRUCTION OF RESERVOIRS WITHIN THE FRAMEWORK OF AGRICULTURAL POLICY OF THE SOVIET STATE IN THE KASHKADARYA OASIS I Jabbarova, I Qodirov Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры 4 (1), 47-49, 2024
- 23.Qashqadaryo vohasi sugorma dehqonchiligini xorijiy olimlar timinidan urganilishi I Jabborova Look at the past, 2020
- 24.ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal I Jabbarova ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal, 2020
- 25.STUDY OF IRRIGATION HISTORY OF THE KASHKADARYA OASIS I Jabborova International journal of psychosocial rehabilitation, 2019